

**JIZZAX VILOYATI SHAROITIDA YETISHTIRILGAN POMIDORLAR
USTIDA TAHLILIY ISHLAR OLIB BORISH****Hoshimova Shaxlo Ulug‘bek qizi¹**¹ Jizzax politexnika instituti*“Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat texnika va texnologiyalari”
kafedrası assistenti***A‘zamov Azizbek A‘zam o‘g‘li²**² Jizzax politexnika instituti talabasi**To‘laganov Siroj Umirzoq o‘g‘li³**³ Jizzax politexnika instituti talabasi**MAQOLA
MA'LUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received:08.11.2024**Revised: 09.11.2024**Accepted:10.11.2024***KALIT SO‘ZLAR:***pomidor yetishtirish,
kimyoviy tarkibini
aniqlash, agrotexnika
talablari, zarar
keltiruvchi viruslar,
iste‘mol jarayoni, xalq
xo‘jaligidagi ahamiyati.**Maqolada mualliflar tomonidan Jizzax viloyati
sharoitida yetishtirilgan pomidor mahsulotini
yetishtirish va qayta ishlash jarayonlarini
takomillashtirish maqsadida turli tahliliy ishlarni
olib borishgan. Ular olib borgan bu tadqiqotlari
sohaga qiziqishi yuqori bo‘lgan insonlar uchun
foydali bo‘lishiga ishonadilar.*

KIRISH. Bugun mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish jadallik bilan yuksalmoqda desak adashmaymiz. Aholini sifatli hamda hamyonbop mahsulotlar bilan uzluksiz ta‘minlash mirishkor dehqonlar oldida turgan eng katta vazifalardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. 2024-yilda eksportbop va serdaromad ekinlarni ekish va aholining mazkur sohada bilim va ko‘nikmalarini oshirish uchun 54 ta tumanda namunaviy o‘quv-tajriba maydonlari tashkil etiladi. Bu ham qishloq xo‘jalik sohasiga hukumat tomonidan hususan mamlakatimiz rahbarining bevosita chiqarayotgan farmon hamda qarorlaridan ham

sezish mumkin. Barchamiz sevib tanavvul qiladigan pomidor mahsulati nafaqat to'yimlilik uchun balki, foydali bo'lgani uchun ham tanavvul qilinadi. Sabzavotlar orasida aholi sevib iste'mol qiladigan mineral moddalar, vitaminlarga boyligi bilan ajralib turadigan pomidor mahsulotlari alohida o'rinni egallaydi. Uning mevalari yangi uzilgan, saqlangan va qayta ishlangan holda iste'mol qilinadi. O'zbekistonda ilg'or xo'jaliklar inson hayoti uchun zarur bo'lgan ushbu sabzavotdan juda yuqori hosil olmoqdalar. So'nggi yillarda pomidordan 850 ming tonnadan ortiq hosil yig'ishtirib olinmoqda. B. A. Rubinning ma'lumotlariga ko'ra pomidor tarkibida o'rta hisobda quyidagilar: quruq moddalar - 6,0-9,0%; uglevodlar - 3,99%, oqsil - 0,95%; yog'lar - 0,19%; sellyuloza - 0,84%; kul moddasi - 0,61% ni tashkil etmoqda. 1 kg pomidorda 215 kkal energiya mavjud bo'lib, pishgan mevalar tarkibida 0,5% atrofida olma va limon kislotalar, shuningdek, C, A, B₁ va B₂ vitaminlari ham ko'p miqdorda uchraydi. Yana uning tarkibida kaliy, natriy, kalsiy, fosfor, temir, oltingugurt, kremniy, xlor va boshqa moddalari ham mavjud[1].

Pomidor yer yuzining hamma joyida yetishtiriladi. Pomidor-ituzumdoshlar oilasiga mansub o'simlik. Vatani Janubiy Amerikaning Ekvador va Peru qismi. O'zbekistonda sabzavot ekinlari ichida pomidor eng ko'p ekiladi va jami sabzavot yetishtiriladigan maydonlarning 40% dan ortig'ini egallaydi. Sabzavot ekinlari, jumladan pomidor yetishtirishning yangi innovatsion texnologiyalari joriy etilmoqda. Hozirda respublikamizda 200 ming gektardan ortiq maydonga sabzavot ekinlari yetishtirilayotgan bo'lsa, shundan 45,8 foiziga pomidor ekini ekilib, o'rtacha hosildorlik gektariga 24 tonnani tashkil etmoqda. Shuningdek, issiqxona sharoitida yetishtirilayotgan pomidorlar eksport qilinayotgan agro mahsulotlar ichida yetakchi. Mamlakatimiz hududida barcha viloyatlarda pomidorning 258 (120 ta ochiq usulda + 138 ta yopiq usulda)ta navi ekiladi. Pomidor ham pishirilmasdan, ham turli taomlar va qaylalar yoki ichimliklar ingrediyehti sifatida iste'mol qilinadi. Pomidor o'simligi odatda 1-3 metr balandlikkacha o'sa oladi. Poyasi bo'sh bo'lib, ko'pincha yerda tarqalib va boshqa o'simliklarga chirmashib o'sadi. Pomidor mo'tadil iqlim sharoitida o'sadigan bir yillik o'simlik sifatida o'stiriladi. Birinchi yilda rivojlanadi, o'sib boradi va rivojlanadi. Meva va urug'larini tugatadi va ishlab chiqaradi. Pomidor eng muhim sabzavot ekinlaridan biridir, chunki u dunyodagi eng ko'p yetishtiriladigan, iste'mol qilinadigan va sotiladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan biridir, inson oziqlanishida ajralmas mahsulotdir va oziq-ovqat sanoatida keng qo'llaniladi, masalan, muzlatilgan, konserva, tomat pastasi, ketchup va tuzlangan pomidorlar sevib tanavvul qilinadi. Pomidor iste'mol qilar ekanmiz, u muhim vazifalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan darmondori desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Antikarsinogen ta'sirga ega va bundan tashqari antiseptik

xususiyati, revmatik kasalliklarga qarshiligi, buyrak faoliyatini oshuvchi, terini ajinlardan halos etuvchi hamda antiallergik ta'sirlarga ham egadir[2].



1-rasm

Biz pomidorning do'stlik navi ustida tajriba olib bordik va quyidagi xulosalar amalda o'z tasdig'ini topishiga erishdik.

1-jadval

Pomidor tarkibidagi moddalarni aniqlash 100 g hisobida							
	Qur uq modda %	Energ iya (kal)	Suv	Proten	Y og'	Qand miqdori	Uglevodl ar
Yangi	7-8	19-20	94- 95	1	0. 1- 0.2	6	4
Pishgan	8	20	92	1	0. 2	3.9	-
Konserv a	12	36	90	1	0. 5- 0.6	7	-
Vitaminlar (mg/100g hisobida)							
	Vit.A		B1	B2	Nikatin (B6)		Vit.C
Yangi	900-1700		0.07	0.03-	0.6-0.7		22.39

		-1	0.05				
Pishgan	1000	0.07 -7	0.03- 0.07	0.7-0.8	17-25		
Konserv a	1500	0.10	0.09	1.9-2	16-30		
Mineral moddalar (mg/100g hisobida)							
	Ca	Fe	Mg	P	K	Na	S
Yangi	7-14	0.3- 0.6	10	17-28	2 45	3	11
Pishga n	12-16	0.7	-	28-33	2 87	5	-
Konser va	12-22	0.8- 1.1	-	38-50	3 65	1045	-

Pomidor agrotexnikasiga ko'ra pomidor ko'chatlari 40-45 kunlik, poyasi va ildizlari durkun rivojlangan, barglari to'q yashil tusda, sog'lom bo'lishi lozim. Ekish rejalashtirilgan yerlarni tayyorlash ishlari kuz oylaridan boshlanadi, hosildan bo'shagan maydondagi yirik o'simliklar qoldiqlaridan tozalanib, mahalliy o'g'it sohib chiqiladi. Berilishi lozim bo'lgan madaniy o'g'itlar miqdorini bir qismi qo'lda sohib chiqilib, keyin maydon 28-30 sm chuqurlikda yumshatiladi. Ekishga tayyorlashni keyingi tadbirlari ekishdan oldin bajarilib, maydonlar 14-16 sm chuqurlikda yumshatiladi. Yirik kesaklar xaskash yordamida maydalanib bir yo'la yer tekislab olinadi, keyin 70 sm yoki 90 sm qator oralig'ida ekish egatlari tortib chiqiladi. Ekish muddati va sxemasiga ko'ra- yoshi 40-45 kunlik pomidor ko'chatlari janubiy viloyatlarda: ertagi navlar martning o'n kunligida, o'rta va kechpishar navlar aprelning I-II o'n kunligida, kechki muddatda martning III o'n kunligida; markaziy viloyatlarda ertapishar navlar aprelning I-o'n kunligida, o'rta va kechpisharlari aprelning II-III o'n kunligida hamda mayning I-II o'n kunligida, urug' bilan ochiq maydonga aprelning I-o'n kunligida; shimoliy viloyatlarda ertapishar navlar aprelning I-o'n kunligida, o'rta va kechpisharlari aprelning III-o'n kunligida, mayning I-o'n kunligida va urug' bilan ochiq maydonga aprelning I-o'n kunligida ekiladi. Pomidorning ertapishar va o'rtapishar navlari u qadar nishab bo'lmagan dalalarda 70x25 sm, tekis maydonlarda 90x25 sm, uzun palakli navlar 90x40 sm sxemada ekiladi. Ekilgandan keyin ko'chatlarni albatta sug'orish zarur. 1 sotix maydonga ekish sxemasiga qarab 280-570 ta ko'chat sarflanadi. Parvarishlash: jarayonida o'simliklarga birinchi ishlov berish ko'chatlar tutib olgach, ya'ni

ekilganidan 10-12 kundan keyin boshlanadi. Bunda egat ichi, pushta va qatordagi ko'chatlar orasining tuprog'i yumshatiladi. Birinchi parvarishlashdan 12-15 kun o'tgach, ikkinchi suv beriladi. Tuproq yetilgandan so'ng yana bir bor chopiq qilinadi. Bunda yer begona o'tlardan tozalanadi, yumshatiladi, tuproq pomidor ko'chatining atrofiga bosiladi. Pomidor o'simligi yaxshi rivojlanib, mo'l hosil berishi uchun uning ildizi joylashgan qatlam havo bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Buning uchun suv egat oralatib qo'yilgani ma'qul. O'g'itlashda yetishtirishda tuk holda 1 sotix maydonga 7,6 kg sulfat ammoniy, 2,6 kg ammofos, 1,6 kg kaliy xlor o'g'itlari beriladi. Pomidor suvga talabchan o'simlik bo'lib, sizot suvi chuqur joylashgan yerlarda o'suv davri mobaynida sug'orishda har gal 1 sotixga 5-6 m³ hisobidan 18-20, sizot suvi yuza o'tloq va o'tloq-botqoq tuproqli yerlarda 12-15 marta sug'oriladi. Sizot suvi chuqur joylashgan yerlarda hosil yetilguncha har 8-12 kunda, hosil yoppasiga pishganda esa 5-7 kunda sug'oriladi.[3]

Kuz boshlangandan keyin ekin kamroq sug'oriladi. Pomidor qiyg'os pishganda yorilib ketmasligi uchun navbatdagi hosil terib olingandan keyin suv beriladi. Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish: Agrotexnik tadbirlar almashlab ekishni qo'llash, o'simlik qoldiqlarini yo'qotish, begona o'tlar va zararkunandalarga qarshi kurashish, virus kasalligiga chidamli pomidor navlarini ekishdan iborat. Urug'ni ekishga tayyorlashda majburiy tadbirlardan biri - ularni virusli va bakterial kasalliklardan xoli qilishdir. Urug' ekishdan oldin virus kasalliklariga qarshi 48 soat davomida 50-52°C va 24 soat 80°C qizdiriladi, keyin 3 daqiqa 5 foizli sho'r suvda saralanadi. Issiqxonalarda oqqanot tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, almashlab ekishni qo'llash, yerni chuqur haydash va boshqa texnologik choralarni o'z vaqtida qo'llash zarur[4].

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki viloyatimiz hamda malakatimizda yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari tabiiy hamda ekalogik tozza mahsulotlar bo'lsa ahlomiz salomati ham yaxshi bo'ladi. O'rganilayotgan sohamiz qiziq va murakkab biz esa albatta bu yo'lni mardonovvor yengib o'tamiz. Chunki pomidor mahsuloti xalq xo'jaligida hamda inson iste'moli uchun ham foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 05.03.2024-yildagi PQ-115 son qarori

2-<https://www.agro.uz/>

3-<https://gov.uz/oz/agro/news/view/17380>

4- A.O., & Aluko, R.E. (2005). The anti-carcinogenic and anti-atherogenic effects of lycopene a review. Trends in Food Science & Technology, 16: 344-350.